OT SPORTI O‘YINLARI UCHUN SPORT KIYIMINI YARATISH BORASIDA OLIB BORILGAN ILMIY-TADQIQOTLAR TAHLILI

Musayeva Lobar Sayfullayevna
Buxoro davlat texnika universiteti “Yengil sanoat muhandisligi va dizayni” kafedrasi tayanch doktoranti
Tel: (99897) 861 7711,
E-mail:lobar.musayeva.97@gmail.com
ORCID: 0009-0000-0714-9463
Po’latova Saboxat Usmanovna
Buxoro davlat texnika universiteti
Yengil sanoat muhandisligi va dizayni” kafedrasi professori

Annotatsiya. Ushbu maqolada turli iqlimiy sharoitlar uchun maxsus kiyim yaratish borasida ilmiy izlanishlar tahlil qilingan. Bundan tashqari, ot sporti turlari va Ko’pkori milliy ot sporti sohasida qilingan tadqiqotlar o’rganilib, chavandozlari uchun bugungi kunga qadar sport kiyim mavjud emasligini va chavandozlar uchun yuqori sifatli sport kiyimlar ishlab chiqarish zarurligi aniqlandi. Marketing tadqiqotlar natijasida, ko’pkori ot sporti maxsus sport kiyimi kurtka va shim ko’rinishida, ergonomik, gigiyenik va ekspluatatsion xossalari yuqori bo’lishi kerak hamda harakatga to’sqinlik qilmaydigan sport kiyim yaratish lozimligi aniqlandi.

Kalit so’zlar: ot sporti, chavandoz, gigiyenik ko’rsatkich, estetik ko’rsatkich, ekspluatatsion ko’rsatkich, maxsus kiyim, ko’pkori, loyihalash, kiyim silueti, termo-fizik xossalar, konstruksiya, shim silueti, sport kiyim, ergonomika.

Аннотация: В статье анализируются научные исследования по созданию специальной одежды для различных климатических условий. Кроме того, были проведены исследования в области конного спорта и национального конного спорта Копкори, в результате которых было установлено, что в настоящее время отсутствует спортивная одежда для всадников и существует необходимость в производстве высококачественной спортивной одежды для всадников. В результате маркетинговых исследований было определено, что специальная спортивная одежда для конного спорта, в основном в виде курток и брюк, должна обладать высокими эргономическими, гигиеническими и эксплуатационными свойствами, а также необходимо создавать спортивную одежду, не стесняющую движений.

Ключевые слова: конный спорт, всадник, гигиенический показатель, эстетический показатель, эксплуатационный показатель, специальная одежда, многофункциональность, дизайн, силуэт одежды, теплофизические свойства, конструкция, силуэт брюк, спортивная одежда, эргономика.

ISSN 3030-3907

Abstract. This article analyzes scientific research on the creation of special clothing for various climatic conditions. In addition, studies conducted in the field of equestrian sports and the Kopkori national equestrian sport were studied, and it was determined that there is no sportswear for riders to date and that there is a need to produce high-quality sportswear for riders. As a result of marketing research, it was determined that special sportswear for Kopkori equestrian sports should be in the form of jackets and trousers, have high ergonomic, hygienic and operational properties, and it is necessary to create sportswear that does not hinder movement.
Key words: equestrian sport, rider, hygienic indicator, aesthetic indicator, operational indicator, special clothing, multifunctionality, design, clothing silhouette, thermophysical properties, construction, trouser silhouette, sportswear, ergonomics.

Kirish

So’ngi yillarda maxsus kiyimlarni ishlab chiqarish uchun yangi xususiyatlarga ega matolar assortimenti sezilarli darajada kengaydi. Yuqori himoya va fizik-mexanik xususiyatlarga ega matolardan tayyorlangan ish kiyimlari foydalanuvchilarning ish qobilyatini va sog’ligini saqlab qolish uchun ishlab chiqarilayotgani ma’lum. To’qimachilik sanoatining barcha matolari tolaviy tarkibiga ko’ra uch turga bo’linadi: tabiiy, kimyoviy va aralash. Mahsulotni tayyorlashda pardozlash uchun maxsus moddalar qo’llaniladi va bu esa o’z navbatida matoning fizik-mexanik xossalarini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birgalikda, hozirgi davrda himoya, gigiyenik, ekspluatatsion va estetik xususiyatlarni o’zida mujassamlashtirgan ko’plab maxsus kiyimlar ishlab chiqarilmoqda [1]

Ot sporti o’yinlari - xarakter jihatdan xilma-xil har bir ishtirokchi o’yin qoidalari doirasida otga minib o’yin davomida yuzaga keladigan vaziyatlardan va otni boshqarishning muayyan usullaridan foydalangan holda qarama-qarshi kurashga kirishadigan o’yinlar. Ot o’yinlari – ot minish san’atining eng qadimgi janrlaridan biri bo’lib, unda chavandozning mahorati va ilhomi ot harakatlarining tezligi va plastikasi, uning go’zalligi va nafisligi bilan birlashadi. O’rta Osiyo xalqlari ko’plab qiziqarli milliy ot sporti o’yinlarini jonlantirib, shakllantiryapti. Qadim zamonlardan buyon o’ynalinib kelinayotgan ot sporti o’yinlari haligacha unitilib ketilmagan, balki hayotbaxsh sotsialistik tuzum ta’sirida o’z ahamiyatini saqlab, gullab- yashnab kelmoqda. Ammo, halihanuz, ot sporti o’yinlarining soni va xilma-xilligi sohasidagi ustuvorlik Markaziy Osiyo xalqlarida saqlanib qolgan. Dunyoning hech bir mamlakatida ot sporti o’yinlari bunday nufuzli o’rinni egallamagan [2].

ISSN 3030-3907

Ot sporti Markaziy Osiyo xalqlarida saqlanib qolishiga qaramasdan, O'zbekistonda ot sporti "ko'pkori" o'yini uchun mo'ljallangan sport kiyim hali hanuz loyihasi ishlab chiqilmagan. Shuning natijasida, Ko'pkori milliy ot sporti uchun sport kiyim yaratish soha uchun dolzarb muammo hisoblanadi.

Tadqiqot usuli. Ilmiy tadqiqot davomida analiz va sintez, analitik tahlil, qiyosiy tahlil usullaridan samarali foydalanilgan. Tadqiqotimizda qiyosiy tahlil, analitik tahlil yo'nalishlari orqali muammoni chuqurroq o'rganishga harakat qilingan. Muammoni yechimiga olib boruvchi strategik yo'nalishlar belgilangan. Tadqiqotning obyekti sifatida xizmat ko'rsatish sohasi tanlab olingan.

Natija. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Ko'pkori milliy ot sporti o'yini chavandozlari uchun qular, erkin harakatni ta'minlaydigan sport kiyimini yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi. O'zbekiston iqlimiy sharoitlariga mos hamda chavandozlar talablaridan kelib chiqib, Ko'pkori ot sporti sohasida kiyim yaratish maqsadida, xorijiy va MDX davlatlari olimlari o'tkazgan ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilindi.

Ilmiy izlanishlar darajalarga bo'lingan holda o'rganildi: turli iqlimiy sharoitlar uchun maxsus kiyim yartish borasidagi ilmiy ishlanmalar, ot sporti va ergonomik loyihalash ko'rsatkichlari asosida sport kiyimlarini yartish borasidagi hamda Ko'pkori milliy ot sporti sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilindi.

Muhokama. Turli iqlim sharoitlari uchun maxsus kiyimni loyihalash masalalariga bir qator olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xitoylik Jiaqing Zhang [3] tomonidan issiq iqlimning yuqori havo haroratlari uchun mo'ljallangan maxsus kiyimning optimizatsion tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda "inson-kiyim-tashqi muhit" tizimida bir o'lchamli chiziqli almashuv asosida maxsus kiyim orqali inson organizmi va tashqi muhit o'rtasidagi issiqlik almashinuv jarayonlari ko'rib chiqilgan. Mualliflar Huck, Maganga, Kim F. [4] tomonidan iqlimiy sharoitlar uchun mo'ljallangan maxsus kiyimlarni loyihalashda "odam –kiyim-atrof muhit" tizimini tahlil qilish algoritmi taklif qilingan bo'lib, loyihalash bosqichida maxsus kiyimning parametrlarini turli havo haroratlari uchun bashorat qilish imkonini beradi.

Афанасьева Р.Ф. [5] fikricha, kiyimning termo-fizik xossalari nafaqat materiallar paketi tuzulishiga shuningdek, uning konstruksiyasiga, bichimiga, uzunligiga va tanaga yopishib turish darajasiga ham bog'liqligini asoslagan. Tadqiqotlar [1] natijasida aniqlanganki, sovuq iqlim sharoitida ko'tariladidigan alpinistlar uchun optimal gigienik sharoitlar kiyimning termal himoya xususiyatlari bilan ta'minlanishini va u issiqlik muvozanatini saqlash uchun zarur bo'lib, noqulay mikroiqlimdan himoya qilishni ta'minlaydi, bu kiyim paketining qalinligiga bog'liq bo'lgan umumiy termal hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

O’zbekistonda Komilova X.X. [6] ning dissertatsiya ishlarida, O’rta Osiyo iqlimiy sharoitlari uchun mo’ljallangan erkaklar kiyimi to’plami ratsional konstruksiyasi ishlab chiqilgan bo’lib, dissertatsiyada kiyimning ko’krak chizig’I bo’yicha bemalollik qo’shimchasi kiyim osti havo qatlamlari o’lchamlariga bog’liqligining matematik modeli ishlab chiqilgan.

Hozirgi vaqtda jahonda maxsus sport kiyimlarning ergonomik nuqtai nazaridan qulayligiga kata ahamiyat qaratilmoqda. Sport kiyimlarini ergonomik loyihalash masalalariga bir qator xorijiy va MDX davlatlari olimlarining ishlari bag’ishlangan.

Brazilyalik olimlar Leite da Silva, Saltos [7] ishida shaxsiy himoya vositalarini loyihalashda ergonomik sifatlarning o’rnini tadqiq qilishga bag’ishlangan bo’lib, mehnat jarayonida inson harakatlarni bajarayotganda dinamik effektlarni aniqlash metodikasi ishlab chiqilgan.

Профессор В.Е.Романов tomonidan биринчи бўлиб, махсус кийимларни лойиҳалашга тизимли ёндашувни илгари сурган, янада такомиллаштириш мақсадида унинг назарий ва услубий асосларини ишлаб чиқган [8, 54 б.].

Моськина Е.Л hamda Старкова Г.П [9] tomonidan sport bilan shug’ullanadigan insonlarning harakatini cheklamaslik maqsadida yuqori elastik materiallardan kiyim dizaynini ishlab chiqish uchun materiallar xususiyatlarini o’rgangan bo’lib, Yuqori elastik materiallardan sport kiyimlarini loyihalashning uslubiy asoslarini yaratish uchun elastan iplari tarkibiga qarab ularning xususiyatlarini o'rganish va bu tadqiqotlar asosida sportchilar talablariga javob beradigan kiyim modeli dizaynini qurishni tavsiya etgan.

Тюрин И.Н., Гетманцева В.В. [10] ishlarida sport kiyimlarini ishlab chiqarishdagi dizayn kamchiliklarini modellashtirishdan iborat bo'lgan kiyimni loyihalash jarayoniga dekonstruktiv yondashuv tahlili natijalari keltirilgan va modellashtirish kamchiliklarini, ularning namoyon bo'lishlari va bartaraf etish usullarini tahlil qilish asosida ishlab chiqilgan dizayn effektlarini tizimlashtirish keltirilgan. Shular asosida, loyihalash metodologiyasini yanada takomillashtirilgan.

Гарипова Г.И., Халилова А.А., Коваленко Ю.А. [11] tomonidan sport kiyimlarini ishlab chiqarishda qo'llaniladigan bir qator zamonaviy polimer materiallar tahlili keltirilgan va ushbu materiallarning tabiiy tolalardan tayyorlangan materiallarga nisbatan bir qator afzalliklari ko'rib chiqilgan.
sport kiyimlari nuqtai nazaridan sintetik matolar tabiiy matolardan sezilarli darajada ustun ekanligini hamda bardoshli, shaklini yaxshi ushlashi, muntazam yuvilganda rangini yo'qotmasligi va tabiiy materiallarga qaraganda tezroq qurish xususiyatlari o’rganilgan.

ISSN 3030-3907

Bundan tashqari, sintetik matolar yaxshi nafas oladi, kerak bo'lganda isitadi va soviydi, atrof-muhitning salbiy ta'siridan himoya qiladi va mashg'ulotlarni ancha samarali va foydali qiladi, agar tabiiy mato sportchilarga tabiiy materiallarning foydali xususiyatlaridan foydalanish imkoniyatini bersa, sintetik tola esa bu xususiyatlarni yaxshilash va takomillashtirish imkonini beradi degan tavsiyalar keltirilgan.

Белгородский В. С. [12] tadqiqotlarida har xil turdagi yuklar bilan sport mashg'ulotlari uchun sport kiyimlariga qo'yiladigan talablar ishlab chiqilgan, "sportchi-qobiq-muhit" tizimining fiziologik qulayligini ta'minlash nuqtai nazaridan ergonomik sifat ko'rsatkichlari o'rganilgan va sport faoliyatining turli davrlarida sportchining tana holatini tahlil qilish natijalari keltirilgan.

O'zbekistonda ergonomik loyihalash tamoyillari asosida Касимова А.Б., Шин Е.Г va boshqalar tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan, Касимова А.Б. [13] tadqiqotlarida velosiped sportchilari uchun maxsus sport kiyimini ergonomic loyihalash masalariga qaratilgan.

Hozirgi davrda ot sporti sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ot sporti sohasi bo'yicha Xorijiy va O'rta Osiyo davlatlari olimlari tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Italiyalik olimlar Dashper, K. & St John, M. [14] hamda Turkiyalik tadqiqotchilar Kılıç, N., Ceylan, Ö., Aydın, Ö. H. [15] tomonidan turli xil ot sporti o'yini musoboqalari uchun maxsus kiyimlar tahlil qilingan. Bundan tashqari, turli xil ot sporti o'yini uchun materiallar xususiyatlari o'rganilgan.

Андриевский М.Ю. [16] tomonidan ot sporti chavandozlari uchun kiyimlarni loyihalashda ularning harakatlari dinamikada va statikada o'lchovli xususiyatlar o'rtasidagi farq o'rganilgan. Shuning natijasida, orqa kenglik va bel atrofi kabi o'lchovli xususiyatlarda o'zgaruvchanlik kuzatilgan va bu o'zgaruvchanlik materialning elastiklik ko'rsatkichlari yaxshilanishi tavsiya etilgan.

Асанова С.Ж., Фазылбаева Н.Р., Айтуленова К.Т [17] tomonidan ko'pkori ot sporti o'yini qoidalari o'rganildi, chavandozlar harakatining ergonomikasi aniqlandi, o'yinlarda foydalaniladigan kiyimlar ko'zdan kechirildi. Sport kiyimining konstruktiv dizayni avtomatlashtirilgan SAPR dasturi yordamida ishlab chiqilgan. Natijada "Ko'kpar" o'ynash uchun sport kiyimlarining oqilona dizayni ishlab chiqilib, himoya to'plami – tizza va bosh uchun himoya kiyimi tayyorlangan.

Xulosa. Shunday qilib, o'tkazilgan tahlil natijasida aksariyat ilmiy ishlar maxsus kiyimlarni loyihalashga qaratilgan. Xorijiy va O'rta Osiyo davlatlarida ko'pkori milliy ot sporti oyini chavandozlari maxsus kiyimini ishlab chiqish borasida ilmiy asoslangan ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada o'rganilmagan.

ISSN 3030-3907

Shuni ta'kidlash lozim-ki, ot sporti chavandozlari uchun maxsus kiyimlarni loyihalash sohasidagi ilmiy ishlanmalarni o'rganish natijasida O'zbekiston respublikasi iqlim sharoitlarida chavandozning tana harorati holatini o'zgarishini hisobga olgan holda ko'pkori milliy ot sporti chavandozlari uchun maxsus kiyimni loyihalashning ilmiy asoslangan konstruksiyasi va texnologiyasi mavjud emasligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Musayeva L.S., Po'latova S.U. Chavandozlar maxsus kiyimlariga qo'yilgan talablar va materiallar xususiyatlari //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2024. – T. 4. – №. 40. – C. 158-161.
2. Musayeva L., Pulatova S. Milliy ot sporti o'yinlarining bugungi kunda jamiyatdagi o'rni //Talqin va tadqiqot. – 2023. – T. 1. – №. 19.
3. Zhang J. Optimization analysis of high temperature workwear based on one-dimensional multilayer flat wall heat transfer process //Journal of Physics: Conference Series. – IOP Publishing, 2019. – T. 1300. – №. 1. – C. 012025.Huck O., Maganga Y., Kim F. Protective overalls: evaluating of garment design and fit // International Juornal of Clothing Science and Technology-1997, Vol.9 (1). –Is.1. –P.45-61.
4. Афанасьева Р.Ф. Гигиенические основқ проектирования одежды для зашиты от холода. –М.: Легкая индустрия, 1977. -136 с.
5. Камилова Х.Х. Исследование и разработка летней мужской одежды для условий Средней Азии: диссертация ...кандидата технических наук: 05.19.04. –Москва, 1978. -204 с.
6. Leite da Silva C. R., dos Santos J. E.G. Design of personal protective equipment: To promote of Brazilian artifacts with ergonomic attributes/ 9th International Symposium on Occupation Safety and Hygiene (SHO) Proceedings:-February 14-15, 2013. –Guimaraes, Portugal, 2013. –P.357-360.
7. Романов В.Е. Системный подход к проектированию специальной одежды. –М.: Легкая промышленность, 1981. -128 с.
8. Моськина Е.Л. Построение конструкции одежды для спортсменов с учетом свойств высокоэластичных материалов/ Е.Л. Моськина, Е. В. Прокопова. — Текст: непосредственный// Технические науки: традиции и инновации: материалы III Междунар. науч. конф. (г. Казань, март 2018 г.). — Казань: Молодой ученый, 2018. — С. 96-99.
9. Тюрин И. Н., Гетманцева В. В. Анализ особенностей конструктивного решения спортивной одежды //Дизайн, технологии и инновации в текстильной и легкой промышленности (Инновации-2016). – 2016. – С. 242-245.

ISSN 3030-3907

10. ГАРИПОВА Г.И., КОВАЛЕНКО Ю.А. Анализ современных полимерных материалов, применяемых при изготовлении спортивной одежды //проблемы и перспективы развития россии: молодежный взгляд в будущее. – 2020. – С. 301-304.
11. Белгородский В.С. и др. Разработка требований к одежде для спортивных тренировок с различными видами нагрузок //Дизайн и технологии. – 2018. – №. 64. – С. 48-54.
12. Касымова А.Б. Методологические основы проеатирования верхных трикотажных изделий из хлопко-нитроновых полотен эластичными и теплозащитными свойствами. дисс. докт. филос. по технич. наукам (PhD) Ташкент: ТТЕСТИ. -2018. -120 с.
13. Dashper, K. & St John, M. (2016). Clothes make rider? Equestrian Competition Dress and Sporting Identity. Annals of Leisure Research, 19(2) 235-250.
14. Kılıç, N., Ceylan, Ö. (2023). "Examination of Equestrian Branches and Clothing", Turkish Journal of Fashion Design and Management (TJFDM), 2023, SI(1): 21-30.
15. Андриевский М. Ю. и др. Динамика размерных признаков всадника конного спорта //Материалы докладов 55-й международной научно-технической конференции преподавателей и студентов. – 2022. – С. 186-188.
16. Асанова С.Ж., Фазылбаева Н.Р., Айтуленова К.Т., Садыгулова М.А., Жайгулова М.С. Проектирование защитной одежды для кокпара в целях безопасности. Вестник Алматинского технологического университета. 2023;(4):5 13. https://doi.org/10.48184/2304-568X-2023-4-5-13

ISSN 3030-3907